


O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

O'quv qo'llanma



H.D.ABDULLAYEV

82
85-16

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ
DAVLAT UNIVERSITETI**

H.D.ABDULLAYEV

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

*3120100- filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
bakalavr ta'lim yo'nalishi sirtqi bo'lim talabalari uchun*

O'QUV QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI**

**«O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2020**



UO'K: 821.512.133.09(091)

KBK: 83.3g(50')ya73

A 15

Abdullayev, H.

O'zbek adabiyoti tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / H.Abdullayev. – Toshkent : «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 152 b.

UO'K: 821.512.133.09(091)

KBK: 83.3g(50')ya73

Abdullayev Hamro Dauletbaevich

Mas'ul muharrir:

M.Qurbaniyazov

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Matyakubov

filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Qurbanbaev

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda oliy o'quv yurtlari filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavr ta'lim yo'nalishi o'zbek adabiyoti tarixi fani dasturiga tayanilgan. Ushbu o'quv qo'llanma o'zbek adabiyoti tarixi fan bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar asosida yozilgan. Qo'llanmada mumtoz adabiyot namunalari umumlashtirilgan holda, muayyan tizimga solinib, uslubiy innovatsion tavsiyalar berilgan. Sirtqi bo'lim talabalarining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, nazorat savollari tuzilgan. O'quv qo'llanma sirtqi ta'lim talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-6529-1-0

© «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020.

© H.Abdullayev, 2020.

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan maqsad hamda aniq vazifalar oliy ta'lim sohasini isloh qilish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga, mustaqil davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarining yuksak taraqqiyotida samarali xizmat qiladi. Qarorda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarador integratsiyalashuvi ni ta'minlash hamda yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish zarur ekanligi ta'kidlangan.

Ma'naviy barkamol, g'oyaviy sog'lom, har tomonlama komillik-kasbiylarni tayyorlash sifatini oshirish – oliy o'quv yurtlarining bosh vazifasi qilib qo'yildi.

Demak, bugungi milliy mustaqillik davrida o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini yangi innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish va bu orqali xalqimizning yangi va mumtoz adabiy-badiiy talakkurini yoshlarga o'rgatish eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Yosh avlodni hayot darsligi – adabiyot bilan chuqur tanishtirish, qalblaridagi ezgu-niyatlarning amalga oshirishlariga ko'maklashish, estetikaning go'zal namunalari bo'lgan mukammal badiiy asarlardagi ibratli hayotiy saboqlar bilan tarbiyalash adabiyot fani o'qituvchilari oldiga qo'yilgan bosh vazifadir. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim tizimining har bir adabiyot o'qituvchisi o'qitish huquqini o'zida saqlab qolishi uchun bilimdon, yangi innovatsion texnologiyalar bilan qurollangan, odil, mulohazali, yosh avlodga ilm-u irfon sirlarini o'rgata oladigan, mukammal shaxs bo'lishi lozim.

Yosh avlodni milliy an'ana va qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda, mumtoz adabiyotimizning o'rni va amaliy ahamiyati katta. Shu ma'noda uni zamonaviy talablar asosida mukammal tarzda o'qitish, oliy o'quv yurtlariga alohida mas'uliyat yuklaydi. Uslubiy qo'llanmada masalaning aynan shu qirralariga e'tibor qaratilgan.